

XURSHID DO'STMUHAMMADNING "CHAYONGUL " QISSASIDA INSON RUHIYATI TASVIRI

Abdumajidova Zuhro

Qo'qonDU O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Haydarova Gulhayo

Ilmiy rahbar: Qo'qonDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi,

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20640445>

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Xurshid Do'stmuhammadning "Chayongul yoxud quyiqlik qotillik" qissasida inson ruhiyatining badiiy talqini, obrazlar psixologizmi va asarning ramziy mazmuni ilmiy tahlil qilingan. Asarda "gul" (ezgulik) timsoli sifatida berilgan ayol obrazining ijtimoiy va ruhiy bosim ostida "chayon" (yovuzlik)ga aylanish jarayoni ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan ochib berilgan. Qissa fojia, nomus, adolat va ma'naviy tanazzul kategoriyalari orqali zamonaviy o'zbek nasridagi psixologik prozaning o'ziga xos xususiyatlarini namoyish etadi.

Kalit so'zlar: psixologizm, ramziylik, inson ruhiyati, chayongul, Quyiqlik, fojia, qotillik, ma'naviyat, ijodkor mahorati

Abstract

This article provides a scholarly analysis of the depiction of the human psyche, psychological depth of characters, and symbolic content in Khurshid Dostmuhammad's novella "Chayongul, or a Low-Village Murder". The transformation of the female protagonist from a symbol of "flower" (goodness) into a "scorpion" (evil) is examined from a socio-psychological perspective. The study reveals how prolonged social pressure, moral degradation, and emotional trauma lead to the loss of humanity and the emergence of violence. The novella is interpreted not merely as a crime chronicle but as a profound exploration of honor, justice, and spiritual decay in contemporary Uzbek prose.

Keywords: psychologism, symbolism, human psyche, Chayongul, Low Village, tragedy, murder, spirituality, **Writer's craftsmanship**

Аннотация:

В статье представлен научный анализ художественного изображения человеческой психики, психологизма персонажей и символического содержания повести Хуршида Достмухаммада «Чайонгул, или Деревенское убийство». Исследуется процесс превращения женского образа, символизирующего «цветок» (добро), в «скорпиона» (зло) под воздействием социального и психологического давления. Показано, что повесть выходит за рамки криминальной хроники и раскрывает проблемы чести, справедливости, духовного упадка и внутреннего конфликта личности в современной узбекской прозе.

Ключевые слова: психологизм, символизм, человеческая психика, Чайонгул, Нижний кишлак, трагедия, убийство, духовность, **Творческое мастерство**

Zamonaviy o'zbek nasrida o'ziga xos o'ringa ega ijodkorlardan biri bo'lgan Xurshid Do'stmuhammadning dastlabki kitobi 1989- yilda "Hovli etagidagi uy" nomi bilan nashrdan chiqqan. Keyin yozuvchining "Panoh", "Oromkursi", "So'roq", "Sof o'zbekcha qotillik", "Mahzuna", "Yolg'izim - Siz", "Beozor qushning qarg'ishi", "Jajman" hikoyasi, shuningdek, "Hijronim mingdir

mening" qissa va hikoyalar to'plamlari nashr etilgan. Qatag'on qurbonlaridan birining taqdiriga bag'ishlangan "Hamid A'lamovning aytolmagan gaplari" xotira essesi va 2002-yilda nashr qilingan "Jurnalist bo'lmoqchimisiz?" nomli risolasi va shu yili chop qilingan "Chayongul" kinossenariysi ham uning qalamiga mansub. Tarjimon sifatida Akutagava Ryunoskening "Rasyomon darvoza" hikoyasi va Temur Po'latovning "Yetti huzur-halovat va qirq qayg'u alam"[1] romanini va boshqa ko'plab asarlarni tilimizga tarjima qildi.

Muallif o'zi aytganday "Alloh taolo iqtidordan, iste'doddan qismasa, qo'liga qalam tutgan inson bir yilda ham shakllanishi mumkin. Lekin hech bir iste'dod sohibi men shakllanib bo'ldim, ijod cho'qqisiga erishdim degan gapni ayta olmaydi. Badiiy ijodning tabiati shunday: qo'lingizdagi qalam hamisha sizning yuragingizga tahluka solib turadi... Mana shu tahlukani, chorlovni va da'vatni hamisha his etib turadigan inson izlanishdan, qora mehnatdan to'xtamaydi...[2]".

X.Do'stmuhammad yaratgan asarlarida to'g'ridan-to'g'ri tasvirga o'tib, ortiqcha tavsifga yo'l bermaydi. O'quvchi ham qisqa satrlarda muallifning maqsadini ilg'ay oladi. Bu esa o'quvchini zerikishini oldini oladi. N.G.Chernishechskiy ta'kidlaganidek, "...agar asarda tasvirdan ko'ra tavsif cho'zilib ketsa, bu mahorat belgisi emas. Aniq badiiy bunyodkorlik badiiy asar tilining birinchi belgisidir"[3]. X.Do'stmuhammad ijodida bu yetakchi xususiyat sanaladi. Zero, "... yozuvchi qahramonlar taqdirini, hayotdagi chigalliklarni shunchaki ifoda etish bilan cheklanmaydi, balki hayotning ma'nosini chaqishga intiladi."[4]. Ushbu ta'rif Umarali Normatov tomonidan P.Qodirovga nisbatan bildirilgan bo'lishiga qaramay, u bizning nazarimizda X.Do'stmuhammad ijodiga ham taalluqliligi bilan ahamiyatlidir.

Xurshid Do'stmuhammad o'z asarlarida inson ruhiy olamini o'ta nozik,g'oyatda hayajonli,qolaversa,uning asarlari favqulodda tahlikali holatlarni tahlil qilishga chorlaydi. "Chayongul " qissasi ham shunchaki jinoyat xronikasi emas, balki jamiyatdagi ma'naviy yemirilishning oqibati sifatida namoyon bo'ladi. Asarning syujet komponentlarini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Ekpozitsiya - kirish qismi. Ekspozitsiyada voqea sodir bo'lgan makon Quyiqlik muhiti,qishloqdagi insonlarning voqeaga bo'lgan munosabatlari,qahramonlarning ijtimoiy va ruhiy holati aks etgan.
2. Tugun - voqeaning boshlanish nuqtasi. Bu bosqichda Gulshodning opasi Gulgun va jiyani Jur'at bilan uyiga qaytishi,dugonalaridan orqada qolib,suvda Ashurni ko'rib qolishi,nomusining buzilishi,bunga chiday olmasdan o'zini o'ldirishi kabi voqealar tasvirlangan.
3. Voqealar rivoji - asosiy harakat bosqichi. Gulgun va onasining aybdorlarini jazolatishga urinishlari,sud,tergov jarayonlari,qishloq aholisi orasida turli fikrlarning paydo bo'lishi tasvirlanadi. Xalq ongida adolatga ishonch , nomus tushunchasi kuchli ekanligi ko'rsatiladi.
4. Kulminatsiya - cho'qqi,nuqta. Ashurning Gulshodga uylanmasligi, Gulgunning nazortchilarning oldiga ko'p bora qatnashi, Ashurga chora ko'rmasliklari, Gulgunning jahl ustida Ashurni o'ldiraman deb uyiga borishi, Ashurni o'rniga ukasi Akbarning o'ldirishi kabi hodisalar aks etgan.
5. Yechim - yakuniy qism. Fojianing ijtimoiy saboqlari ko'rsatiladi. Jamiyat va shaxs o'rtasidagi murakkab munosabat ochiladi.Asar an'anaviy dedektiv yakun bilan emas,balki ijtimoiy-psixologik yakun bilan tugaydi.

Odatda, gulag qiyoslanuvchi nozik xilqat bo'lmish ayolning yovuzlashuvi, gulning (ayolning) qanday qilib, o'z tabiatiga zid ravishda "chayon"ga aylanishi, ya'ni, qotillik va yovuzlikka qo'l urishining sabab-oqibatlarini ko'rsatib berilgan. Qissadagi voqealar markazida Chaman momo va

uning oilasi atrofidagi munosabatlar turadi. Chaman momo - asarning markaziy va sirli obrazidir. U oiladagi tartib qoidalarni qattiq ushlaydigan, ikki qiz-u bir o'g'ilga ham otalik, ham onalik qilgan obraz. Gulgun obrazi esa asarda inson tabiatining qanchalik tez o'zgarishi mumkinligini ko'rsatib beradi. U uzoq vaqt davomida oilaviy tazyiq, ijtimoiy qiyinchiliklar va ruhiy azobda yashaydi. Uning xarakteridagi "gul" ning "chayon"ga aylanishi aynan chidab bo'lmas ruhiy bosim natijasi hisoblanadi. Uning qotillikka qo'l urishi bu uning uchun yagona "najot" yoki zulmga nisbatan isyon sifatida talqin qilingan. Asardagi Gulshod obrazi badnom bo'lganidan so'ng tengdoshlaridan o'zini olib qochadigan, hech kimga qo'shila olmaydigan kamgap, tubanlik qurboni bo'lgach chiday olmasdan o'zini o'ldirgan obraz.

Eshniyoz muallim - Ashurning dadasi, muammoni ikkala tarafga ham zarari tegmaydiga holatda hal qilmoqchi bo'lgan va hal qila olmagan obraz sifatida namoyon bo'ladi.

Qissadagi Tergovchi obrazi orqali ham voqealar yanada keskin tus oladi. Ushbu obraz faqat qonun bilan emas, balki inson ruhiyati bilan ham qiziqar ekan, sodir bo'lgan qotillikning shunchaki faktini emas, balki "nima uchun" sodir bo'lganini anglashga intiladi. Uning obrazi Quyiqishloqdagi qorong'u va sirlarga to'la muhitga "nur" olib kiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lgan.

Quyiqishloq odamlari - ular sodir bo'layotgan voqealarga tashqaridan baho beruvchi lekin ichki fojiani anglamaydigan, ko'proq boshqalarning aybini qidiruvchi omma sifatida tasvirlangan.

Xulosa sifatida aytish joizki, Xurshid Do'stmuhammad asarlaridagi turli xil qiyofa va xarakterlarga ega bo'lgan obrazlar turli insonlarning umumlashma xislatini jam etadi. Asar mazmuniga ko'ra, insonni yovuzlikka undovchi kuch uning atrofidagi sovuq munosabatlar, mehrsizlik va ma'naviy tanazzuldir. Bu asar insonning ichki "men"ini tatqiq etishda mas'uliyat bilan o'ylashga chorlaydigan asar hisonlanadi. "Chayongul" bu inson qalbidagi ezgulik (gul) va yovuzlik (chayon) ning doimiy kurashi aks etgan badiiy ko'zgu o'laroq namoyon bo'lgan. Yana bu asar qahramonlarning fikr-o'ylari, taqdirlari va muallif tomonidan tasvirlangan turfa xildagi holatlari kitobxonni chuqur o'ylantiradigan, song'siz mulohazalarga, o'ziga xos xulosalar chiqarishga undovchi asar hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Mirvaliyev S. Shokirova R. O'zbek adiblari .- T .: G'afur G'ulom nashriyot matbaa-ijodiy uyi. 300-bet .
2. Xurshid Do'stmuhammad. Beozor qushning qarg'ishi. - T .: Sharq 2006. 3-bet.
3. CHernishevskiy N.G. Poli. sobr. sochinenie. -M., Isskustvo, 1978. str. -34.
4. U.Normatov. Yetuklik, T., 1982., 201-bet.
5. "Bizdagi sun'iy demokratiya shaxslarni ham, erkin fikrni ham yo'qotdi». Xurshid Do'stmuhammad bilan suhbat". kun.uz. 13-iyun 2024-yil.
6. „XURSHID DO'STMUHAMMAD (1951)". ziyouz.com. 13-iyun 2024-yil.
7. Xurshid Do'stmuhammad", O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (X-harfi). Toshkent: „O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2000-2006-yillar.
8. Xurshid Do'stmuhammad. "SHARQ" NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI. TOSHKENT-2011.154 - bet.